



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

SHARTNOMALARNING MATN QOLIPLARI

Farhod BABADJANOV*

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshqaruv hujjatlarining matn qolipi modellari, shartnoma hujjatining qanday modelda yaratilishi, o'zbek tilidagi shartnomalarning matniy qurilishi tahlilga tortilgan. Shartnoma hujjatining huquqiy ta'rifi va lingvistik tavsifi keltirib o'tilgan. Shartnoma matnlarining lingvistik jihatdan tuzilishi xo'jalik shartnomalari misolida tahlil etilib, matnlarning lingvistik modeli olti qismga ajralishi asoslab berilgan. Har bir qismning mazmun-mohiyati, unda aks etadigan axborotlar qisqa va ixcham shaklda ifodalangan. Shuningdek, shartnomalarning boshqa turlari xususida umumiy ma'lumotlar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: matn qolipi, matn qolipi modellari, muntazam matn qolipli hujjat modellari, erkin matn qolipli hujjat modellari, lokal normativ hujjat, shartnoma, xo'jalik shartnomalari.

Text Templates of Contracts

Abstract

This article analyzes the textual models of management documents, the model in which the contract document is created, and the textual structure of contracts in the Uzbek language. The legal definition and linguistic description of the contract document are given. The linguistic structure of contract texts is analyzed using the example of economic contracts, and the division of the linguistic model of texts into six parts is substantiated. The content of each part, the information reflected in it, is expressed in a short and concise form. Moreover, the general information on other types of contracts is provided.

Keywords: text template, text template models, regular text template document models, free text template document models, local normative document, contract, commercial contracts.

Hujjatlarni tezkor ravishda tayyorlash va uni adresantga tushunarli tarzda taqdim etish ishlarini tashkil etish uchun hujjatlarining matn qoliplarini ilmiy aspektda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv hujjatlarining matn qolipi modellari ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi: 1) muntazam matn qolipli hujjat modellari; 2) erkin matn qolipli hujjat modellari (Babadjanov, 2025, 201-bet).

Muntazam matn qolipli hujjatlar birmuncha qat'iylashgan matniy qurilmalarga ega bo'lib, ular yillar davomida shakllangan va ish yuritishda keng

Filologiya fanlari doktori, dotsent. Qoraqalpog' davlat universiteti, farhod.7272@gmail.com

qo'llaniladi. Mazkur toifadagi hujjatlar standart tuzilishga ega bo'ladi, ularning qoliplarini o'zgartirish, rekvizitlarning o'rnini almashtirish mumkin emas. Odatda, bunday hujjatlarning aksariyati huquqiy normalarni belgilaydigan lokal normativ hujjat hisoblanadi. Ularning tuzilishi, jumla qurilishi, rekvizitlari va matn qoliplari qonunchilik hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi. *Tashkiliy va farmoyish hujjatlari* muntazam matn qolipli hujjatlar hisoblanadi. Mazkur hujjatlarning aksariyati lokal normativ hujjatlar bo'lib, huquqiy normalarni belgilashga xizmat qiladi. Masalan, shartnomalarni rasmiylashtirish Fuqarolik Kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonun va boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi. Ustav, nizom, ichki mehnat tartiboti, jamoat shartnomasi, buyruq kabi boshqa lokal normativ hujjatlarning rasmiylashtirish qoidalari ham ishlab chiqilgan va o'rnatilgan tartibda tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan tasdiqlangan.

Erkin matn qolipli hujjatlar shakliy qurilishi, matn tuzilishi muayyan huquqiy hujjatlar bilan rasmiy ravishda tasdiqlanmagan, hujjat tuzilishiga, matn qoliplariga majburiy talablar qo'yilmaydigan hujjatlar hisoblanadi. Bunday hujjatlar huquqiy normalarni belgilamaydi, ya'ni lokal normativ hujjat hisoblanmaydi. Ularning asosiy vazifasi rasmiy axborotni tashish yoki taqdim qilishdan iborat. Mazkur toifaga *ma'lumot-axborot hujjatlarini, xizmat yozishmarini* kiritish mumkin. Ularning matn tuzilishi bo'yicha tasdiqlangan qat'iy ko'rsatmalar mavjud emas.

Tadqiqot obyektimizga olingan shartnomalarning matn qolipi birinchi toifaga mansub bo'lib, shartnomalar lokal normativ hujjat hisoblanadi. Lokal normativ hujjatlar ichida eng ko'p huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradigani shartnomalardir. Mazkur maqolamizda amaliyotda keng qo'llaniladigan shartnomalarning tuzilishi, rasmiylashtirilishi va lingvistik xususiyatlariga doir jihatlarni tahlilga tortamiz.

Shartnoma ikki yoki undan ortiq tomonning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki to'xtatish yo'lidagi kelishuvdir (Aminov va boshq., 2021, 78-bet). Shartnoma tomonlar o'rtasida o'rnatilgan yoki to'xtatilgan (bekor qilingan) huquq va majburiyatlar to'grisidagi kelishuvni, bitimni tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat qonun hujjatlarida belgilangan huquqiy mezonlar asosida har ikki (yoki bir necha) tomonning huquqlarini kamsitmagan, ularni teng ko'rgan holda tuzilishi kerak. Demak, ikki yoki undan ortiq tomonning jismoniy yoki yuridik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish hamda to'xtatish bo'yicha kelishuvini belgilovchi rasmiy hujjat shartnoma hisoblanadi.

"Shartnoma" so'zining sinonimi sifatida *kontrakt*, *bitim* atamalari ham qo'llanilishi mumkin. Shartnoma, avvalo, yuridik hujjat bo'lib, unga asosan manfaatdor tomonlarning huquq va majburiyatlari belgilanadi: "Fuqarolar, jismoniy va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkin bo'lib, ularni shartnoma tuzishga majbur qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, shartnoma tuzish burchi qonuniy

majburiyatlarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno” (O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi). Taraflar qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan vazifalarni zimmasiga olishga majbur emas. Qonunchilikda shartnomalarga tomonlarning munosabatlarini tartibga soluvchi hujjat sifatida qaraladi. Shu bois shartnomalar matni nafaqat huquqiy meyyorlarga muvofiq, shu bilan birga til meyyorlariga muvofiq izchil, aniq va tushunarli tarzda tuzilishi lozim. Ba’zi hollarda shartnoma matnini tayyorlovchilar tajribasizlikdan yoki ataylab shartnoma matnlarini tushunarsiz va mujmal shaklda tuzishadi. Bunday holatlarga barham berish uchun shartnoma matnlarini tuzilishini ilmiy asosda tahlil qilib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xo‘jalik shartnomalari. Shartnomalarning aksariyatini xo‘jalik shartnomalari tashkil etadi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida xo‘jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilish vaqtida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solish O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuni (<https://lex.uz/ru/docs/-18942>) bilan amalga oshiriladi.

Demak, shartnomalarni rasmiylashtirish tartiblari yuqorida sanab o‘tilgan bir necha huquqiy hujjatlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Mazkur hujjatlarda shartnomalarning huquqiy tomonlari tartibga solinib, lingvistik xususiyatlari va matn tuzilishi to‘g‘risida so‘z yuritilmaydi. Ya’ni, shartnomaning huquqiy talablar bo‘yicha mezonlari belgilangan, biroq matnning ifoda shakli, grammatik qurilishi, umuman, lingvistik xususiyatlari tartibga solinmaydi.

Biz shartnoma matnlarini lingvistik qurilishini tahlil qilib, uning matn modellarini o‘rgandik hamda tegishli tavsiyalarimizni taqdim qildik.

Shartnoma matni ko‘pincha birinchi tomon tashabbusi bilan ishlab chiqiladi va ikkinchi tomon uni ma’qullagandan keyin rasmiylashtiriladi. Matn mazmunida har ikki tomonning manfaatlari ham teng aks etishi uchun ikkinchi tomon ham matnning umumiy mazmuni, jumladan ifodalayotgan ma’noni aniq tushunib olishi kerak. Agar muhim ahamiyatli shartnomalar bo‘lsa, huquqiy ekspertiza bilan birga lingvistik ekspertizadan o‘tkazish ham tavsiya etiladi.

Bizning nazarimizda, shartnomaning lingvistik modeli olti qismdan iborat bo‘ladi, ya’ni, lingvistik tuzilishiga ko‘ra shartnomalar matni asosan quyidagi qismlardan tashkil topadi:

1. Majburiy rekvizitlar: shartnomaning nomi, mavzusi (mehnat shartnomasi, mahsulot yetkazib berish shartnomasi, xizmat ko‘rsatish shartnomasi va b.), shartli raqami, rasmiylashtirilgan sana, shartnoma tuzilgan joy nomi.

2. Shartnomaning maqsadi. Shartnomalarning matnining birinchi xatboshisida tomonlarning to‘liq nomlari va nima maqsadda bitim tuzilayotganligiga aniqlik kiritiladi. Matnining maqsadi belgilangan qismi kirish qism hisoblanadi. Mazkur

qism, odatda, uchinchi shaxs majhul nisbatda yoki birinchi shaxs ko‘plikda ifodalanishi mumkin.

Tomonlar (biz), keyingi o‘rinlarda “Ijrochi” deb yuritiluvchi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi nomidan ish yurituvchi direktor _____ bir tomondan, keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiluvchi _____ ikkinchi tomondan, keyingi o‘rinlarda birgalikda “Tomonlar” deb yuritiluvchilar o‘rtasida mazkur shartnoma(ni) quyidagi shart va majburiyatlar haqida tuzildi (tuzdik).

Shartnomaning qolgan qismlari uchinchi shaxs tilidan yozilgani hisobga olinsa, uning kirish qismi uchinchi shaxs tilidan yozilgani maqsadga muvofiq.

3. Shartnomaning predmeti. Mazkur qismda shartnoma asosida bajariladigan ish, ko‘rsatiladigan xizmat, yetkazib beriladigan mahsulot yoki boshqa shartlar o‘lchov birligi, miqdori, muddati, bahosi aniq ko‘rsatilgan holda, ba‘zan jadval shaklida beriladi. Jumla qolipi *tomonlar quyidagi majburiyatlarni oladi* tarzida shakllanadi:

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq, Ijrochi Buyurtmachining buyurtmasiga binoan quyidagi ishni (xizmatni) bajarish, Buyurtmachi esa bajarilgan ish (xizmat) uchun haq to‘lash majburiyatini oladi:

№	Ish (xizmat) nomi	O‘lchov birligi	Soni	Narxi (so‘m)	Miqdori	Aksiz solig‘i	QQS	Jami hisoblangan miqdor (so‘m)
1.	Lingvistik ekspertiza xizmati	xizmat	1	_____	1	Aksiz solig‘isiz		_____
Jami:								_____

4. Tomonlarning huquq va majburiyatlari. Mazkur qism shartnomaning eng muhim jihati bo‘lib, unda tomonlarning huquqlari va bajarishi lozim bo‘lgan majburiyatlari aks etadi. Tomonlarning huquq va majburiyatlari, odatda, alohida bo‘limlarda aks ettiriladi. Jumla qurilsishida majburiyatlarning bajarilish mexanizmlari aniq va tushunarli ifodalanishi lozim. Tomonlardan biri zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarmay ish sudgacha borsa, har bir so‘zning ma‘nosi, har bir jumlaning mazmuni hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkin.

Boshqa hujjatlarda bo‘lgani kabi shartnoma matnlarida ham aniqlik kirituvchi axborot muhim ahamiyat kasb etadi. Aniqlik kirituvchi axborotning qo‘llanilmasligi majburiyatning bajarilishini mavhumlashtiradi.

Matnda bajarilishi shart bo'lgan majburiyatlar ifodalangan jumla kesimi hozirgi-kelasi zamon bo'lishli fe'l shakli bilan yoki egalik qo'shimchasini olgan harakat nomidan keyin *kerak, lozim, shart* kabi so'zlarni keltirish orqali ifodalanadi. Bajarish shart bo'lmagan, tavsiyaviy takliflar kesimi mumkin so'zi bilan tugallanadi:

Buyurtmachi shartnoma umumiy bahosining 30 foizini Ijrochining hisob raqamiga oldindan o'tkazib beradi yoki Buyurtmachi ixtiyoriga ko'ra shartnoma qiymatining 100 foiz to'lovini oldindan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishi mumkin.

5. Majburiyatlarni bajarmaslik oqibatlari (tomonlarning javobgarligi).

Shartnomada belgilangan majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilmay qolsa, qanday oqibatlarga olib kelishi shartnomada aniq ko'rsatilishi kerak. Majburiyatlarning bajarilmasligi yoki uning kechikishi natijasida tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan nizolar va kelishmovchiliklar ular o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal qilinishi shartnomada qayd qilinishi lozim. Chunki shartnoma mazmun-mohiyatiga ko'ra har qanday holatda ham kelishimga kelishdir. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilib bo'lmagan holatlardagina ishni sudgacha olib borish mumkin:

Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar yozma talabnoma bildirish tartibiga rioya qilingan holda hal etiladi.

Bildirgan talabnomasiga qonunda belgilangan bir oylik muddat ichida javob olmagan yoki talablari qanoatlantirilmagan taqdirda, huquqi buzilgan deb hisoblovchi taraf nizoni hal qilish uchun da'vo arizasi bilan javobgar joylashgan iqtisodiy sudga murojaat qilishga haqli.

6. Taraflarning yuridik manzillari va tomonlarning rekvizitlari. Shartnoma oxirida tomonlarning manzillari, hisob raqamlari, STIR raqamlari, rahbar va hisobchining imzolari, muhrlar kabilardan iborat rekvizitlar joylashadi.

XI. Tomonlarning rekvizitlari:

IJROCHI:

BUYURTMACHI:

Shartnoma matnlarida yuqorida sanab o'tilgan qismlardan tashqari tomonlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha majburiyatlari, fors-major holatlar kabi huquqiy talablar aks etgan bo'limlar ham bo'lishi mumkin. Biz faqat shartnomalarning mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi qismlarning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish bilan cheklandik.

Shartnomalarning boshqa turlarining ham belgilangan qoliplari normativ-huquqiy hujjatlar bilan tasdiqlangan. Biz ularning nomlarini va qaysi me'yoriy hujjatlar asosida tuzilishini qayd etish bilan cheklanamiz.

Mehnat shartnomasi. Shartnomaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan turi mehnat shartnomasi yoki mehnat bitimi bo'lib, mazkur me'yoriy hujjat orqali xodim va tashkilot o'rtasidagi munosabatlar tartibga solinadi. Mehnat bitimida xodimning qonunchilikda va mehnat kodeksida ko'rsatilgan huquq va erkinliklari cheklanmasligi lozim.

Mehnat shartnomasi (kontrakt)ning namunaviy shakli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan normativ hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 1997-yil 11-martdagi 133-son qarorining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan (<https://www.lex.uz/docs/-7220862>).

Jamoa shartnomasi. Ish beruvchi bilan kasaba uyushmasi tomonidan mehnatni to'g'ri tashkil qilish, xodimlarning ish beruvchi tomonidan beriladigan qonuniy topshiriq va vazifalarini ado etish va ularning huquq hamda erkinliklarini himoya qilishni kafolatlash maqsadida tuziladigan lokal normativ hujjat *jamoa shartnomasi* deyiladi. Mazkur hujjat shartnomaning alohida turi bo'lib, ish beruvchi bilan xodimlar o'rtasidagi mehnatga oid, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbga oid munosabatlarni tartibga soluvchi lokal normativ hujjat hisoblanadi.

Hujjat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, "Aholi bandligi to'g'risida", "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida", "Kasaba uyushmalari to'g'risida", "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida" kabi sohaga oid boshqa qonunlar hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston kasaba uyushmasi Federatsiyasi va O'zbekiston Ish beruvchilar Konfederatsiyasi o'rtasida tuzilgan Bosh jamoa kelishuvi va boshqa sohaga oid huquqiy va me'yoriy hujjatlarga asoslanib tuziladi. Jamoa shartnomasi ish beruvchi va kasaba uyushmalari tomonidan xodimlarning huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va kasbiy majburiyatlarini belgilash maqsadida rasmiylashtiriladi.

Jamoa shartnomasi – korxonada ish beruvchi bilan xodimlar o'rtasidagi mehnat, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbga oid munosabatlarni tartibga soladigan me'yoriy hujjat. Ish beruvchi bilan jamoa shartnomasi tuzish zarurligi to'g'risidagi qaror qabul qilish huquqiga kasaba uyushmasi (o'z vakillik organi orqali), xodimlar vakolat bergan boshqa vakillik organi yoki bevosita mehnat jamoasi umumiy yig'ilishi (konferensiyasi) ega [https://uz.wikipedia.org/wiki/Jamoa_shartnomasi].

Demak, shartnomalarning har qanday turiga qo'yiladigan talablar muayyan normativ-huquqiy bilan tasdiqlanadi. Matnning lingvistik talablari esa yuqorida tavsiya etilgan takliflar orqali bajarilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

Aminov M. Va boshqalar. (2021). *Davlat tilida ish yuritish*. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti.

Babadjanov F. (2025). *Davlat tilida ish yuritish va hujjatchilik taraqqiyotining ilmiy-nazariy asoslari*. Filol. Fan. D-ri. ... diss. Toshkent.

[Elektron manba] URL: <https://lex.uz/mact/-111189>. (Murojaat sanasi: 2025.30.01).

[Elektron manba] URL: <https://lex.uz/ru/docs/-18942> (Murojaat sanasi: 2025.30.01).

[Elektron manba] URL: <https://www.lex.uz/docs/-7220862> (Murojaat sanasi: 2025.30.01).